

**OLIY TA'LIMGA KIRAYOTGAN TALABALARNI TIBBIY KO`RIKDAN
O`TKAZISH ZARURATI**

Otajonova Dilrabo Ramil qizi

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” “Pedagogika” fakulteti “Defektologiya” yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlar masalasiga oid bo‘lgan oliy ta’limga kirayotgan talabalarni tibbiy ko`rikdan o`tkazish masalasini o‘rganish zarurati yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *tibbiy ko`rik, salomatlik, salomatligida muammosi bor bo‘lgan talaba, etuk mutaxassis.*

Jamiyat taraqqiyoti amalga oshirilayotgan islohotlarning ko‘lami va mantig‘iga bog‘liqdir. Qaysi soha e’tiborga muhtojligini ilg‘ab, chuqur va har tomonlama o‘ylanib amalga oshirilgan islohotlarga xalqning mushkulini oson, og‘irini yengil, turmushini farovon qiladi, muammolariga yechim topib beradi. Bajarilayotgan ishlar zamirida bugungi muammolarni yechish bilan birga uzoq kelajak ham ko‘zlangan bo‘lishi lozim.

Tibbiy ko‘rik - bu insonning patologik holatini aniqlashga va boshqa kasallikkarning rivojlanish xavfini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Mamlakatimizda yoshlarning sog‘lig‘ini nazorat qilish uchun davriy protseduralar amalga oshiriladi. Davriy tibbiy ko‘rik sog‘liqni saqlash holatidagi o‘zgarishlarni kuzatish va o‘z vaqtida javob berishga qaratilgan. Aynan shunday chora-tadbirlar tufayli kasallikkarning rivojlanishini dastlabki bosqichlarda aniqlash va o‘z vaqtida davolashni boshlash mumkin. Tibbiy komissiyaning qarori oxir-oqibatda yoshlarning o‘z vazifalarini bajarishga yaroqliligi faktini tasdiqlaydi yoki aksincha, uni qabul qilmaydi.

Bolalar bog‘chasi oldidagi tibbiy ko‘rik, tuman bolalar poliklinikasida amalga oshirilishi osonroq. Bolalar bog‘chasiga tibbiy ko‘rikdan o‘tish tartibi quyidagilardan iborat:

1. Pediatrga tashrif buyurib, shifokor maxsus tibbiy kartani chiqaradi va bolaning dastlabki ma‘lumotlarini keltiradi, qanday mutaxassislarni tekshirish va bolalar bog‘chasiga qanday sinovlar o`tkazish kerakligini tushuntiradi.

2. Mutaxassislar tekshirushi: Otorinolaringolog, jarroh, ortoped, nevrolog, ginekolog, stomatolog, oftalmolog, dermatolog

3. Ekspertiza natijalari bo‘yicha mutaxassislar - allergolog, kardiologdan qo’shimcha tekshiruvlar o`tkazishlari va ichki organlarning ultratovush tekshiruvini o`tkazishlari mumkin. Uch yoshga to‘lgan bolalar, shuningdek, nutq terapevtidan maslahat olishlari kerak.

4. Laboratoriya. Bunday tibbiy ko‘rik bola maktabga chiqayotganidayam o`tkaziladi.

Maktabda asosan, maktabning 1-sinfiga 7 yoshga to‘lgan bolalar orasida tibbiy ko‘rik o`tkaziladi. 7 yoshli bolalar ota-onalari bilan birgalikda tuman bolalar shifoxonasi, tegishli bo‘lgan klinika yoki tanlangan xususiy shifoxonada tibbiy ko`rikdan o`tkaziladi, tibbiyot varaqasi olinadi, shundan keyingina, maktab direktoriga ariza bilan murojaat qilinadi. Maktabning birinchi sinfiga qabul qilinayotgan o‘quvchining hujjatlar to‘plamida bolalarning sog‘lig‘i haqida guvohnoma bo‘lishi shart.

“Молодой исследователь”

Организовано в масштабах Содружества Независимых Государств (СНГ)
международный научно-практический конкурс

Maktabgacha tibbiy ko'rik uchun mutaxassislar: Ortoped, jarroh, oftalmolog, stomatolog, otolaringolog, kardiolog, nevropatolog. Ginekolog - (qizlar uchun) ko`rikidan o`tib pediator va maxsus komissiya a`zolarining xulosasi bilan maktabga yo`naltiriladi.

Ukraina davlati maktablarida 2010 yildan boshlab Roufie testining majburiy o'tishi joriy qilingan bo'lib, u jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida sinflar uchun bolalar salomatligi guruhini belgilaydi. Uning o'tish shakli odatda maktabda chiqariladi, ammo fizikaviy tekshiruvlar oxirida, oddiy jismoniy mashqlar bajarilgandan va zarba hisoblagandan keyin klinikada to'ldiriladi. Kerakli sinovlar: qon umumiy tahlili, odam ahlati tahlili, siylik umumiy tahlili. Agar bola biron bir kasallik bilan ro'yxatga olingan bo'lsa, tashxisni tasdiqlash yoki olib tashlash uchun barcha kerakli testlarni amalga oshirish kerak.

Yoshlarning etuk mutaxassis bo'lishida - egallamoqchi bo'lgan mutahassisligini har tomonlama muvofaqiyatli bajara olishi, mutaxassialikning sog'lig'i va fiziologik imkoniyatlariga mos bo'lishi bilan o'zaro bog'liq hisoblaniladi.

Oliy ta'lim masalasini olganda o`zidan savol tug`iladi nima uchun oliy ta`limga xujjat topshirayotgan abituruent tibbiy ko`rikdan o`tmasdan mutaxasislik tanlay oladi? Uning tanlayotgan mutaxassisligi sog`lig'iga to`g`ri kelish yoki kelmasligi to`g`risida topshirayotgan oliy ta`lim muassasi tibbiy xulosa talab qilmaydi?

Hozirgi kunda 5 tagacha fanlar ketma-ketligi mos keladigan yo`nalish tanlash mumkin. Har yili qanchadan qancha abiturent imtixon uchun tayorgarlik ko'radi va xujjat topshiradi, bunga vaqt, mablag` (yo'l haqqi, qo'shimcha taylorlov mashg'ulotlari) sarflaydi. Agar talaba test sinovlaridan muofaqiyatli o`tsa, xohlagan ta'lim muassasasini tanlab, o'z xohishiga qarab talaba bo`ladi, o`qishni boshlaydi. Lekin, salomatligida muammosi bor bo'lgan talabalar, zaif eshituvchi, zaif ko`rvuchi yoki nevropatolog, psixiatr ro'yhatida turuvchilar va nutqida nuqsoni bor talabalar o'z salomatliklarini inobatga olib mutaxassislik yo`nalishlarini tanlashlari zarur. Masalan, nutqida nuqsoni bo'lgan abiturent pedagogika, logopediya, psixologiya yo`nalishi mutaxasisi bo'lib ishlay olmaydi, zaif ko`rvuchilar mexanika, mashinasozlik yoki temir yo'l xizmatida, allergiyasi bor bo'lganlar dizayn, arxitektura yoki rassom bo'lib ishlay olmaydi. Ishga kirish uchun ham sog`ligi to`g`risida ma`lumot so`raladigan soxalar talaygina.

Sifatli kadrlarni yetkazib chiqarish maqsadida, harbiylar armiyaga borishdan avval chuqurlashtirilgan tibbiy ko`rikdan o`tkaziladi, harbiy soxadagi barcha yo`nalishlarda birinchi o'rinda sog`liq to`g`risidagi xujjat ta`lab qilinadi. Lekin, tibbiyot, pedagogika va boshqa sohalarda bunday emas. Bu sohalar ham jamiyat uchun malakali va sifatli kadrlar yetkazib berishi dolzarb bo'lgan yo`nalishlardir. Axoloning sifatli tibbiy va ta'lim xizmatlaridan foydalanishi tibbiyot va pedagogika vakillari qo`lida.

Salomatligida muammosi bor bo'lgan talabalar ta`lim olish huquqidан foydalanishga haqlidirlar, lekin o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib soha tanlashlari muhim hisoblaniladi. Bunda, abituruentlarni tanlgan yo`nalishlari doirasida tibbiy ko`rikdan o`tkazish ishlarini tashkil etish va davlat miqyosiga ko'tarish taklif etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-son, «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» Farmoni
3. Форобий Абу Наср. “Фозил одамлар шаҳри”. А.Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1993. -223 б.
4. <https://uz.everaoh.com/>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/>
6. O‘RQ-595-сон 16.12.2019. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida (lex.uz)